

“TASDIQLAYMAN”
“Hududgazta’minot” AJ
Boshqaruv raisining
o‘rinbosari-bosh muxandis



T. Turdiyev

15.08.2023 yil

**“Hududgaz Toshkent” GTF tasarrufidagi gaz to‘ldirish inshootiga 1 dona nasos
uskunasini xarid qilish bo‘yicha**

Texnik topshiriq

1. UMUMIY MA'LUMOT

1.1 Nomi
<i>“Hududgaz Toshkent” GTF tasarrufidagi gaz to‘ldirish inshootida ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun yangi nasos uskunasini xarid qilish</i>
1.2 Xarid qilish uchun asos va foydalanishdagi asosiy maqsad.
<i>Bo‘sh maiyshiy gaz ballonlarga suyultirilgan gazni texnika, sanoat va yong‘in xavfsizligi talablariga roiya etgan holda o‘z vaqtida to‘ldirish.</i>
1.3 Yangilik haqida ma‘lumot (uskunani ishlab chiqarilgan/chiqarilgan yili)
<i>Nasos uskunasini 2023 yilda ishlab chiqarilgan bo‘lishi. ilgari foydalanilmagan bo‘lishi shart</i>
1.4. Ishlab chiqarish/tayyorlash bosqichlari.
<i>Loyiha va ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchining normativ - texnik hujjatlari asosida bo‘lishi.</i>
1.5. Ishlab chiqarish/tayyorlash uchun hujjatlar
<i>O‘zbekiston Respublikasidagi amaldagi xalqaro standartlar bo‘yicha, hamda ishlab chiqaruvchining normativ hujjatlari bo‘yicha zavod sharoitida ishlab chiqilgan.</i>

2. QO‘LLANISH SOHASI

<i>Gaz to‘ldirish inshootida bo‘sh maiyshiy gaz ballonlarga suyultirilgan gazni to‘ldirishda.</i>

3. EKSPLUATASIYA SHARTLARI

3.1 Eksploatatsiyaning umumiy shartlari
<i>Suyultirilgan gaz iste‘molchilarini xavfsizligini ta‘minlash uchun nasos uskunasini GOST 15150 - 69 bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati iqlim zonasi sharoitida ishonchli ishlashi: - minus 20 - plus 60.</i>
3.2 Foydalanishda qo‘shimcha va maxsus talablar
<i>Nasos ishlash rejimi - to‘liq vaqt. Kafolat muddati: uskuna ishga tushirilgan kundan boshlab kamida 12 oy ishlash kafolati berilishi. Kafolatlar barcha qismlar va komponentlarni qamrab olishi kerak. Yetkazib berilgan tovarlarning va buyurtmachining iltimosiga binoan amalga oshirilishi kerak. Kelishilgan muddatda tovarni almashtirish yoki tovarlardagi nuqsonlarni bartaraf etish zarur.</i>

4. TYeXNIK TALABLARI.

4.1 Asosiy texnik talablar
<i>Ishchi muhit - GOST 20448-90 bo‘yicha suyultirilgan uglevodorod gazi;</i>
<i>Qurilma bardoshli va muhrlangan bo‘lishi kerak;</i>
<i>Qurilmaning ustki qoplamasi (korpus) amaldagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqarilishi kerak.</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. - elektr motorining quvvati – 4,4 kVt dan 5,5 kVt gacha; 2. - nasosning maksimal tezligi - 800 ob/min 3. - mahsuldorlik - 19 m³ / soat; 4. - so‘rish va etkazib berish shoxchalarining o‘lchami - DN50; 5.- pichoqlar turi - o‘z-o‘zini tartibga soluvchi; 6. - maksimal qul. bosim - 16 bar; 7. - Kirish va chiqish joylarida 0-25 bar 2 ta bosim o‘lchagich 8. - maksimal qul. bosim - 24,1 bar; 9. - ish harorati - 72 C°; 10. - xavfsizlik valfi (o‘rnatilgan bosim 19 bar)
<i>Taqdim etilgan nasosning texnik xususiyatlari yuqoridagi parametrlarga teng yoki sifat jihatidan ustun bo‘lishi kerak.</i>
<i>Nasosga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining 2014-yil 22-yanvardagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi gaz sanoatida</i>

xavfsizlik qoidalari” talablariga muvofiq bo’lishi kerak. 13-son (bundan buyon matnda Qoidalar deb yuritiladi).	
<i>Mahsulotga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim</i>	<ul style="list-style-type: none"> • O‘zbek va rus tilida foydalanish qo‘llanmalari; • Tekshirish usuli; • Ishlab chiqaruvchi korxonaning dastlabki tekshiruvi; • Qadoqlash ro‘yxati; • Muvofiqlik sertifikat; • Kelib chiqish sertifikat.
<i>Qo‘shimcha talablar</i>	<ul style="list-style-type: none"> • Uskunani o‘rnatib ishga tushirish ishlarini to‘liq bajarish; • Xodimlarni o‘qitish;
4.2-kichik bo‘lim Asosiy texnik, iqtisodiy va ekspluatatsion ko‘rsatkichlar	
Hisoblangan xizmat muddati kamida 5 yil	
4.3 Tashqi muhait omillari ta’sir etganda barqarorlik va parametrlarga qo‘yiladigan talablar.	
<i>Mahsulot va alohida elementlar qish va yoz sharoitiga chidamli himoyaga ega bo‘lishi.</i>	

5 TOPSHIRISH VA QABUL QILISH QOIDALARI TALABLARI.

5.1. Topshirish va qabul qilishga qo‘yiladigan tartibi

Uskunalarni miqdor va sifat jihatidan qabul qilish buyurtmachining omborida quyidagi ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. *Sanoatda texnik maqsadlar uchun mahsulotlar va iste‘mol tovarlarini miqdor bo‘yicha qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga;*
2. *Sanoatda texnik maqsadlarda mahsulotlar va iste‘mol tovarlarini sifat bo‘yicha qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga;*

6. TASHISHGA QO‘YILADIGAN TALABLARI

Uskunalarni usti yopiq barcha turdagi transport vositalarida amaldagi yuklarni tashish qoidalariga rioya etgan holda tashish

7. SAQLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLARI

Ishlab chiqaruvchi standartlari va normativ – texnik hujjatlariga muvofiq.

8. KAFOLAT DOIRASI VA/YOKI MUDDATIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Yetkazib beruvchi ishlab chiqaruvchi yoki uning rasmiy vakilidan olingan sifatli mahsulotni kafolatli yetkazib berishi kerak. Yetkazib berilgan mahsulot uchun kafolat muddati yetkazib berilgan kundan boshlab kamida 18 oy yoki foydalanishga topshirilgan kundan boshlab 12 oy muddatda ishdan chiqqan taqdirda, belgilangan muddatda yetkazib beruvchi o‘z mablag‘lari hisobidan almashtiradi.

9. TA‘MIRLASH - YAROQLIKKA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Yetkazib berilgan mahsulotni ta‘mirlash – yaroqlik ishlarini bajarish uchun qulay va barcha elementlariga kira olish imkoniyati bilan ta‘mirlanishi

10. XIZMAT KO‘RSATISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat ko‘rsatish markazi mavjudligi.

11. EKOLOGIK VA SANITAR TALABLAR

O'zbekiston Respublikasining ekologiya, sanitariya normalari va qoidalari bo'yicha qo'yiladigan talab.

12. XAVFSIZLIKKA QO'YILADIGAN TALABLAR

O'zbekiston Respublikasida amal qilgan normalar va xavfsizlik talablariga uskunalar javob berishi kerak

13. MIQDORIGA, KOMPLYeKTASIYaSIGA, YeTKAZIB BYeRISH JOYIGA VA MUDDATI (DAVRIYLIGI)GA QO'YILADIGAN TALABLAR

Quyidagilar yetkazib beriladi:

-yangi nasos uskunasini qabul qilish va yetkazib berish manzili:

"Hududgaz Toshkent" GTF Bo'stonliq tumani.

Yetkazib berish muddati – shartnoma shartlari bo'yicha kamida 30 kalendar kuni.

Suyultirilgan gaz ta'minoti ob'ektlaridan samarali foydalanish boshqarmasi boshlig'i



S.Karimov